



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 448 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<i>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<i>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<i>Dilsora Shodmonova</i>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<i>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</i>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<i>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</i>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<i>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</i>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<i>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</i>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<i>Lola Mannobova</i>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<i>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<i>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</i>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<i>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</i>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<i>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</i>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<i>Alimova Gulrux Farhod qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<i>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<i>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</i>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<i>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</i>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<i>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</i>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<i>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</i>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari .....	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri .....	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari .....	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life .....	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari .....	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari .....	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish .....	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash .....	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi .....	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений .....	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения .....	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari .....	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni .....	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish .....	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari .....	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study .....	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training .....	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari .....	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazzoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni .....	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	



# ONA VA FARZAND MUNOSABATLARIDA ETNOMADANIY OMILLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
 Amaliy psixologiya kafedrası professori  
 psixologiya fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning etnopsixologik xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbek va rus onalarining farzandga munosabat strategiyalari qiyosiy o'rganilib, etnomadaniy omillarning tarbiyaviy yondashuvlarga ta'siri aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek onalarida farzandni emotsional jihatdan yaqin qabul qilish, simbiotik munosabat va infantilizatsiya tendensiyalari nisbatan yuqori ekani, rus onalarida esa kooperatsiya va avtoritar yondashuvlarning ko'proq namoyon bo'lishi kuzatilgan. Olingan natijalar ona-farzand munosabatlarining shakllanishida etnopsixologik omil muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ona, farzand, shaxs, o'zaro munosabat, yaqin qabul qilish, kooperatsiya, simbioz, avtoritarizm, infantilizatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the ethnopsychological characteristics of mother-child relationships. The parenting strategies of Uzbek and Russian mothers were comparatively examined, and the influence of ethnocultural factors on child-rearing approaches was identified. The findings revealed that Uzbek mothers demonstrate relatively higher levels of emotional acceptance, symbiotic relationships, and infantilization tendencies toward their children, whereas Russian mothers more frequently exhibit cooperation and authoritarian parenting approaches. The results indicate that ethnopsychological factors play a significant role in the formation of mother-child relationships.

**Key words:** mother, child, personality, interpersonal relationship, emotional acceptance, cooperation, symbiosis, authoritarianism, infantilization.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы этнопсихологические особенности взаимоотношений между матерью и ребёнком. Проведено сравнительное исследование стратегий отношения к ребёнку у узбекских и русских матерей, а также выявлено влияние этнокультурных факторов на воспитательные подходы. Результаты исследования показали, что для узбекских матерей в большей степени характерны эмоциональное принятие ребёнка, симбиотические отношения и тенденции к инфантилизации, тогда как у русских матерей чаще проявляются кооперация и авторитарные подходы к воспитанию. Полученные результаты свидетельствуют о том, что этнопсихологический фактор играет важную роль в формировании отношений между матерью и ребёнком.

**Ключевые слова:** мать, ребёнок, личность, межличностные отношения, эмоциональное принятие, кооперация, симбиоз, авторитаризм, инфантилизация.

## KIRISH

Oila inson ijtimoiylashuvining eng muhim institutlaridan biri bo'lib, shaxsning ijtimoiy tajriba, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Oila nafaqat ijtimoiylashuv muhiti, balki milliy-madaniy qadriyatlar va etnik an'analarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois ota-ona va farzand munosabatlarida etnopsixologik xususiyatlarning aks etishi tabiiy holdir.

Ayniqsa, bolaning dastlabki ijtimoiy tajribasi ko'p jihatdan ona bilan bo'lgan munosabatlar orqali shakllanishi sababli, etnomadaniy omillarning ona-farzand munosabatlarida namoyon bo'lishini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Oilaning bola ijtimoiylashuvidagi roli avlodlararo milliy madaniyat translyatsiyasi jarayonida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni, oila muayyan etnik guruhning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analari va etnik identifikatsiya elementlarini keyingi avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institut

hisoblanadi. Milliy madaniyat asrlar davomida saqlanib kelayotgan urf-odatlar, qadriyatlar, afsonalar va tarixiy hikmatlar orqali avloddan avlodga o'tkazilsa-da, ularning dastlabki o'zlashtirilishi aynan oila muhitida amalga oshadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, oilaning etnik ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi bolaga muayyan etnosga xos xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlar va ijtimoiy tasavvurlarni singdirish orqali namoyon bo'ladi <sup>[4]</sup>. Shu bilan birga, oila yosh avlodning o'z etnosini referent guruh sifatida qabul qilishiga ko'maklashib, ularda etnik identifikatsiyaning shakllanishi uchun muhim psixologik zamin yaratadi <sup>[5]</sup>.

Individ va etnos o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilar ekanmiz, har bir etnik guruh nafaqat milliy-madaniy qadriyatlarni keyingi avlodga uzatuvchi, balki ularni yaratuvchi va rivojlantiruvchi ijtimoiy birlik ekanligini e'tirof etish lozim. Bola oila muhitida insonlar bilan muloqot qilish, kattalarga munosabat bildirish, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Shu ma'noda, oila ijtimoiy bilim va tajribalarning asosiy translyatori vazifasini bajaradi.

Biroq mazkur bilim va tasavvurlarning manbai keng ijtimoiy muhit, xususan, etnosning o'zi hisoblanadi. Etnos tarixi va madaniy taraqqiyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy turmush tarziga xos bo'lgan har bir qoida, qadriyat yoki an'ana muayyan ijtimoiy ehtiyoj va hayotiy zaruratlar ta'sirida shakllangan. Shu bois oila bolaga milliy-madaniy merosni yetkazish bilan bir qatorda, uning mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini ham tushuntirib bersa, etnopsixologik tasavvurlar hamda etnik o'zlikni anglash jarayoni yanada samarali kechadi.

Demak, oila etnomadaniy xususiyatlar translyatori sifatida namoyon bo'lar ekan, uning hayotida etnopsixologik o'ziga xoslik har jabhada namoyon bo'lib turishini kutish o'rindir. Xususan, etnopsixologik xususiyatlar ota-ona va farzand munosabatlarida yaqqol ifodalanishi tabiiy.

Chunki bir tomondan, ota-ona va farzandlar munosabatlari oilaviy hayotning salmoqli qismini tashkil etadi, ikkinchi tomondan esa, oila har doim milliy hayot tarzi elementlarini konservativ tarzda saqlab keluvchi asosiy makon sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, ota-ona bilan bola munosabatlarida etnik o'ziga xoslikning ifodalanishini taxmin qilish qiyin emas.

Bu jarayon, ayniqsa, ona bilan bo'lgan munosabatlarda yaqqol ifodalanishini kutish mumkin. Bunday taxmin ikki tomondan qo'llab-quvvatlanishi mumkin, deb o'ylaymiz.

*Birinchidan*, aksariyat hollarda an'anaviy oilalarda bolalar ko'proq ona bilan, hayotining ilk yillarida esa asosan ona bilan vaqt o'tkazadilar.

*Ikkinchidan*, aynan ayol kishining oilaviy hayoti va bunda bajaradigan ijtimoiy rollari borasidagi tasavvurlarga ko'ra, turli madaniyat vakillari o'rtasidagi tafovut ayniqsa sezilarli darajada bo'ladi. Erkak kishining oiladagi maqomi bilan bog'liq milliy farqlar esa bunchalik yuqori darajada emas.

Onaning bola bilan munosabatlarida etnik mansublik bilan bog'liq o'ziga xosliklar maxsus tadqiqotlarda ham o'rganilgan. Masalan, L. Sh. Boltayeva va I. V. Musxanova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Chechenistonda yashovchi 15-17 yoshli sinaluvchilarning 25 foizi ota va onaning bir millatga mansub bo'lishini ma'qullab, bunda aynan otaning millatiga mansublikni nazarda tutganlar. Vaholanki, har ikki tomonning ona millatiga mansub bo'lishini faqat 6,3 foiz sinaluvchi ma'qullagan <sup>[1]</sup>. Bu holat ko'p ehtimol bilan aynan chechen milliy madaniyati va uning muhim bo'g'ini bo'lgan islomiy qadriyatlar bilan bog'liq ekanligini taxmin qilish qiyin emas.

### TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib hamda yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy-nazariy tasavvurlarga tayangan holda, ilmiy izlanishimizning mazkur bosqichida o'zbek va rus onalari o'rtasida A. Y. Varga va V. V. Stolin tomonidan taklif etilgan "Ota-ona munosabati test-so'rovnomasini" metodikasi yordamida, ularning o'smir yoshdagi farzandlari bilan esa E. S. Shefer tomonidan ishlab chiqilgan "Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi" metodikasi orqali psixologik tekshiruv o'tkazildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy-empirik tekshiruvning asosiy yo'nalishlari, ya'ni psixologik tashxis jarayoni qaratilgan nuqtalar haqida to'liq tasavvur hosil qilish, qolaversa, natijalar tahlilida qo'llanadigan tushuncha va kategoriyalar mohiyati bilan avvaldan tanishtirish maqsadida quyida A. Y. Varga va V. V. Stolinning "Ota-ona munosabati so'rovnomasini" metodikasi shkalalarining mazmuni keltiriladi.



1-jadval: Ota-ona va farzand munosabatlaridagi ustuvor yondashuvlar (A.Y.Varga va V.V.Stolin bo'yicha)

Shkala nomi (faktor)	Shkala mazmuni (shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkich tahlili)
Yaqin olish	bola ota-onasiga qanday bo'lsa shundaylicha yoqadi: ota-ona bola individualligini hurmat qiladi; ota-ona bolasi bilan ko'proq vaqt o'tkazishga intiladi. Uning qiziqish va rejalarini qo'llab-quvvatlaydi
Kooperasiya	ota-ona bolaning ishlari va rejalariga qiziqish namoyon etadi, har bir ishda unga yordam berishga, unga hamdard bo'lishga intiladi; ota-ona bolaning qobiliyatlarini yuqori baholaydi, u bilan faxrlanadi; ota-ona bolaning mustaqilligi va tashabbuskorligini qo'llab quvvatlaydi, u bilan barobar bo'lishga harakat qiladi, ota-ona bolaga ishonadi, bahsli vaziyatlarda uning tarafiga o'tishga intiladi
Simbioz	ota-ona bola bilan simbiozga xos munosabat, ya'ni u bilan birga bir butunlikni hosil qilishga intiladi; ota-ona bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishga, uni hayot qiyinchiliklari va tashvishlaridan chegaralashga harakat qiladi; ota-ona boladan doimo xavotirda bo'ladi, bola ularga kichkina va himoyasizdek ko'rinadi; ota-onaning xavotiri bola vaziyat taqozosi bilan avtonomlasha boshlaganda kuchayadi; ota-ona o'z ixtiyori bilan bolaga mustaqillikni hech qachon bermaydi.
Avtoritarizm	ota-ona boladan qat'iy bo'ysunishni va intizomni talab qiladi; ota-ona hamma narsada bolaga o'z ixtiyorini o'tkazishga intiladi, bolaning nuqtai nazaridan qarashga qodir bo'lmaydi; ota-ona bolani mustaqil harakatlari uchun jazolaydi; ota-ona bolaning barcha ijtimoiy yutuqlari, individual sifatleri, odat, fikr, hissiyotlarini diqqat bilan kuzatadi.
Infantilizasiya	ota-ona bolaning shaxsiy va ijtimoiy imkoniyatlarini past baholashga moyil bo'ladi; ota-ona bolani o'z yoshidan ko'ra kichik yoshda idrok etadi; ota-onaga bola fikrlari, qiziqishlari, hissiyotlari bolalarcha sodda bo'lib tuyuladi; ota-ona bolani hayotga moslashmagan, yomon ta'sir uchun ochiq deb hisoblaydi; ota-ona bolaga ishonmaydi, uning no'noqligi va uquvsizligidan ranjishni namoyon etadi, ota-ona bolani hayot qiyinchiliklaridan chegaralashga va uning barcha harakatlarini qattiq nazorat qilishga intiladi.

Bu yerda avvalo shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qiyosiy o'rganish uchun aynan titul etnos bo'lgan o'zbek millati bilan o'zini identifikatsiya qiluvchi sinaluvchilar bilan rus millati vakillari qatoridagi onalar tanlab olinishida mamlakatimiz etnik tarkibida o'z milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi eng ko'p sonli etnos aynan ruslar ekani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi, ya'ni o'zbek oilalarida ona va bola munosabatlari xususiyatlarini o'rganish, shu jumladan, bunda milliy-madaniy omilning rolini aniqlash uchun obyektiv tafovutlanish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan etnik guruh tanlandi. Ya'ni tili, yashash tarzi, diniy tasavvurlari, urf-odat va an'alariga ko'ra, boshqacha aytganda, etnosning betakror jihatlarini aks ettiruvchi belgilar nuqtayi nazaridan o'zbeklardan tojik, qozoq va qoraqalpoqlarga qaraganda ko'proq farqlanib turadigan etnos sifatida rus millati vakillari tanlandi.

Tadqiqotda qo'yilgan vazifalardan biri, ya'ni ona-farzand munosabatlarining etnik mansublik bilan bog'liq jihatlarini o'rganishda aynan o'zbek va rus sinaluvchilarini jalb etar ekanmiz, bu yerda muhim bir jihatni nazardan qochirmasligimiz kerak. Gap shundaki, tadqiqot mamlakatimizda istiqomat qiluvchi onalar va bolalar ishtirokida o'tkazilgan.

Har bir insonning psixologik xususiyatlari ko'plab omillar ta'sirida shakllangan voqelik ekan, tabiiyki, ko'p vaqtdan buyon tarixiy vatanidan ayri yashayotgan, boshqa etnik guruhlarga qo'shni bo'lib qolgan millat vakillari o'z katta etnosi bilan ma'lum darajada farqlanishini kutish mumkin. Boshqacha aytganda, hayotiy kuzatishlar ham, mantiqiy mulohazalar ham bir millat vakillarining tubdan farq qiluvchi ikki xil tarixiy-madaniy makonda yashashi natijasida ular o'rtasida muayyan tafovutlar yuzaga kelishi mumkinligini tasdiqlaydi.


Shunday ekan, o'zbek va rus onalarining farzand bilan munosabatlarini qiyosiy o'rganish haqida gap ketar ekan, avvalo, bu natijalarni aynan mamlakatimiz miqyosida ekstrapolyatsiya qilish lozimligini ham ta'kidlab o'tish to'g'ri bo'ladi.

Ayni vaqtda, albatta, garchand ikki xil muhitda yashashiga qaramay, umumiy til, urf-odat, an'ana va marosimlar (shu jumladan, an'anaviy diniy marosimlar) borasida katta etnos bilan birlikni saqlab qolayotgan etnik guruh o'zgacha madaniy sharoitda ham o'zining tub etnopsixologik xususiyatlarini saqlab qolishini hisobga olgan holda, tadqiqotimizda aynan etnopsixologik omilning ahamiyatini tekshirish yuzasidan izlanish tashkil etildi va qiyosiy yondashuv amalga oshirildi.

Demak, ikki etnik guruhga mansub onalar hamda ularning o'smirlik yoshidagi farzandlari bilan maxsus empirik izlanishlar o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, muayyan yo'nalishlarda nisbiy yaqinlik va o'xshashlik kuzatilgan bo'lsa ham, ayrim jabhalarda statistik ahamiyatli tafovutlar qayd etildi (1-rasmga qarang).

Dastlabki natijalar va birlamchi statistik ko'rsatkichlardan ko'rinishicha, rus onalari infantilizatsiya uslubiga kamroq moyillik bildirishi hamda ayni vaqtda avtoritarizmga ko'proq urg'u berishi, o'zbek onalari orasida esa yaqin qabul qilish va infantilizatsiya ko'rsatkichlari yuqoriroq ekani ko'zga tashlanadi. Nazarimizda, rus

onalarning bolaga nisbatan infantilizatsiya darajasining pastligi sharoitida avtoritar yondashuvi ko'proq bolani mustaqil bo'lishga chaqirish, o'zi uchun javobgar bo'lishga o'rgatish talabi bilan bog'liqdir.



1-rasm: O'zbek va rus onalarining farzandga munosabatidagi ustuvor yondashuvlar ko'rsatkichlari (% hisobida)

Yaqin olishning infantilizatsiya bilan birga yuqori ko'rsatkichlarga egaligi o'z navbatida ancha vaqtgacha mustaqillik uchun yo'l ochishni istamaslik (yoki bundan qo'rqish), bolani xalq tilida aytganda ancha vaqtgacha "papalash" taktikasi ko'rinishidagi munosabatni keltirib chiqaradi. O'zbek onalarining bola bilan munosabi uchun simbiozga xos aloqalarning nisbatan yuqori qiymatga egaligi ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi.

2-jadval: Farzandga munosabatdagi yetakchi yondashuv borasida o'zbek va rus onalarining qarashlaridagi tafovut ko'rsatkichlari

Qiyosiy tahlil shkalalari	Sinaluvchilar guruhlar		Styudent t-mezoni	Statistik ahamiyat darajasi
	O'zbek M1	Rus M2		
Yaqin olish	22,4	20,6	1,05	p≥0,05
Kooperatsiya	4,3	7,8	2,72	p≤0,01
Simbioz	5,6	3,2	2,64	p≤0,01
Avtoritarizm	3,1	3,4	0,73	p≥0,05
Infantilizatsiya	5,1	3,7	2,04	p≤0,05

## TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, ikki etnik guruhga mansub respondent onalarning farzand bilan munosabatdagi ustuvor strategiyalarini aks ettiruvchi yondashuvlar o'rtasidagi tafovutlarning statistik ahamiyatlilik darajasini tekshirish natijalari bir qator umumiy jihatlar bilan bir qatorda, muayyan farqlar ham mavjudligini ko'rsatdi (3.9-jadval).

O'zbek va rus onalarining bolaga munosabatda ko'proq ixtiyor beradigan uslublarini qiyosiy o'rganishda dastlab e'tiborimizni tortgan jihat, o'zbek onalari uchun bolani hissiy jihatdan yaqin qabul qilish, simbioz va infantilizatsiya ko'rsatkichlarining yuqoriligidir. Albatta, o'zbek milliy tarixida onalarning bola uchun jonini fido qilishi, farzandi uchun hamma narsaga tayyorligi haqida ko'plab hikmatlar va hayotiy misollar mavjud.

Biroq zamonaviy hayotimizda tobora ko'payib borayotgan salbiy hodisalar (farzand savdosi, bolaga jiddiy shikast yetkazish darajasida jismoniy azob berish, uning joniga qasd qilish va h.k.)ni tushuntirishga kelganda, fikrimizcha, aynan yaqin qabul qilish strategiyasining simbiotik va infantil munosabat fonida o'zining bunyodkor kuchini yo'qotishi bilan bog'liq holatlar ham kuzatilishi mumkin. Boshqacha aytganda, agar yaqin qabul qilish munosabati bolani o'ziga to'liq bog'lab olish (simbioz) yoki uni hech narsani eplay olmaydigan, ojiz mavjudot sifatida qabul qilish bilan uyg'unlashsa, natija har doim ham ijobiy bo'lmasligi mumkin.

Rus onalarining yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlari bo'yicha esa, ular farzand bilan munosabatda kooperatsiya va avtoritarizm uslublariga o'zbek onalariga qaraganda yuqoriroq o'rin berishi qayd etildi. Bu holat, ehtimol, nisbatan kam sonli rus oilalarida onaning bir yoki ikki bolaga shaxsan ko'proq vaqt ajratishi, unga hamkorlikni, biroq o'z shartlariga asoslangan hamkorlikni taklif etishga ko'proq tayyorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikki etnik guruh onalarining bolaga munosabat uslublariga ixtiyor berish borasidagi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, yaqin qabul qilish shkalasi bo'yicha sezilarli tafovut kuzatilmasa-da, kooperatsiya va avtoritarizmga ko'proq rus onalari, simbiotik va infantilizatsiyalashgan munosabatga esa o'zbek onalari moyillik bildiradilar.



Bundan esa, o'zbek onasi pozitsiyasida simbioz bolani har narsadan asrash, uni imkon qadar o'ziga bog'liq holatda saqlash va turli noxushliklardan himoya qilishga intilish sifatida namoyon bo'lishi, rus onalarida esa muayyan qat'iylikka asoslangan sheriklik munosabatlarini ta'minlash tendensiyasi ustunligi anglashiladi. Ehtimol, bu yerda yevropalashgan oilaviy munosabatlarda erkinlik qadriyatlarining ustunligi natijasida onalar bolalarning me'yorlardan chetga chiqmasligini ta'minlash yo'li sifatida o'zlari tashabbuskor bo'ladigan hamkorlik strategiyasini tanlashlari mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ona-farzand munosabatlarida etnopsixologik omil muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunlari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ona-farzand munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishda milliy-madaniy jihatdan sezilarli farqlanuvchi etnik guruhlarini qiyosiy tahlil qilish samarali ilmiy yondashuv hisoblanadi.
2. O'zbek va rus onalari farzandni emotsional jihatdan yaqin qabul qilish hamda unga shaxsiy nufuzi orqali ta'sir ko'rsatish masalasida o'xshash tarbiyaviy yondashuvlarni namoyon etadilar.
3. Ikki etnik guruh onalarining farzandga munosabatidagi asosiy tafovutlar hamkorlikni tashkil etish, mustaqillikni qo'llab-quvvatlash va nazorat mexanizmlarini qo'llash xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ona-farzand munosabatlarining mazmuni va shakllanishida etnomadaniy qadriyatlar hamda milliy tarbiya an'analari muhim psixologik omil sifatida namoyon bo'lishini tasdiqladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Болтаева Л.Ш. Психолого-педагогический аспект этнической самоидентификации подростков из гетероэтнических семей // Проблемы современного педагогического образования. - 2020. - № 67-2. - С. 20-23.
2. Карabanова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. - Москва, 2005. - 310 с.
3. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik. - T: "Fan va texnologiya", 2007. -152 b.
4. Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен: Учебное пособие. - М.: Московский психосоциальный институт, 2006. - 496 с.
5. Панфилова Ю.С. Семья как институт сохранения и трансляции ценностей традиционной этнической культуры // Социально-гуманитарные знания. - 2017. - № 11. - С. 325-332.
6. Розин М.В. Представления о родителях и семейных конфликтах в неформальной подростковой субкультуре // Вопросы психологии. - Москва, 1990. - №4. - С. 91-99.
7. Самоукина Н.В. Симбиотические аспекты отношений между матерью и ребенком // Вопросы психологии. - Москва, 2000. - №3. - С.67-81.
8. 191 Федорова С. Н. Современная семья как институт этносоциализации детей // Вестник Марийского государственного университета. - 2012. - № 10. - С. 126-130.
9. Эйдемиллер Е. Г., Добреков И.В., Никольская И.М. Семейный диагноз и семейная психотерапия. - СПб.: Речь, 2003. - 336 с.
10. Abdullayeva D.U. Establishing a relationship between a mother and a teenage child. // Frontline social sciences and history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. - <https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/314>
11. Абдуллаева, Д. (2023). Оилада ота-она ва фарзанд муносабатларининг ўзига хослиги. - Б. 226-232. <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ota-ona-va-farzand-munosabatlarining-uziga-hosligi/viewer>
12. Abdullayeva D.U. Appearance of ethnopsychological factors in the relationship of mother and child in the uzbek family. American journal of social sciences and humanity research. Volume 03 №12. 2023. - P. 170-175.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.